

O‘TKIR HOSHIMOV HAYOTI VA IJODI HAMDA

"URUSHNING SO‘NGGI QURBONI" ASARI BADIY TAHLILI

Shamsiyeva Malika

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Hammualiflar: Eleyiva Zuxra, Usarova Laylo

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov hayoti, ilmiy merosi to‘g‘risida qisqacha ma‘lumotlar, uning "Urushning so‘nggi qurboni" hikoyasining badiiy qurilishi, voqealar tuzilishi, asardagi bosh qahramonlar Umri xola, Shoikrom Shone‘mat, Xadicha, qulupnay voqeasi kabilarning mazmuni haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: urush, qulupnay, syujet, voqealar rivoji,

O‘zbek adabiyotida o‘zining bir qancha yirik roman, hikoya, qissa, dramaturgiya sohasida ham bir qancha salmoqli ishlarni olib borgan ijodkor O‘tkir Hoshimov asarlaridagi barcha qahramonlar – o‘zining tanishlari, do‘stlari, atrofidagi yaqinlarini asarlariga epizod qilib olgan. O‘tkir Hoshimovning bir qancha asarlariga nazar tashlasak barchasida urush davrlaridagi tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin.

"Urushning so‘nggi qurboni" asarida ham urush bo‘layotgan bir davrda insonlarning qiyinchiliklari, urush bizdan ancha olisda bo‘lsada uning zaharli olovi shu yergacha kelib, insonlarni yondirishgacha olib kelgan, erkaklarni urushga olib ketgan, ayollar dalada erkak qiladigan ishlarni ham qilishga, majbur bulgan. "Urushning so‘nggi qurboni" hikoyasining qahramoni Umri xola farzandlari Shoikrom va Shone‘mat, kelini Xadicha, urush ketayotgan bir vaqtda hamma oilalar singari bu oilada ham qiyinchiliklar bo‘lgan, garchi ikki o‘g‘li urushga bormagan bo‘lsa ham, Shoikrom ukasini urushga olmaganda xursand bo‘lgan edi, bekorga ekan, ukasi Shone‘mat sil kasal ekan, shuning uchun urushga olmagani, Shoikrom o‘zi esa "To‘qimachilik kombinati"da montyor bulib ishlardi yaxshi ishlagani sababli ishchi yetishmaganidan olib qolishgan, uning urush boshlanmasidan sal oldin to‘yi bo‘lgan edi urush boshlandi zamon ham o‘zgarib ketdi, bazi bir odamlar tirnoqqa zor, buning xotini Xadicha bulsa oldidan o‘tib ketsa ham boshi qorong‘u bo‘laveradi, xudo beraman desa shuda deb birin-ketin uchta qiz tug‘ib berdi. "Shon‘emat Rossiyadan ko‘chirib keltirilgan zavod qurilishida ishlay boshlaganida uni urushga olishmaganidan Shoikrom suyungan edi. Gap boshqa yoqda ekan. Ukasi sil ekan. Shuning uchun qoldirishgan ekan"^[1] Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsa ham, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turardi, hali bu qo‘shnikida aza, hali u qo‘shnikida aza ochiladi, ukasi Shone‘mat sil kasaliga chalinganidan keyin, tomog‘idan hech narsa o‘tmay qoladi, Komil tabib bir hovuch qulupnay evaziga bir kosa qo‘y suti alishtirardi, onasi bechora akasinikidan qulupnay olib Shone‘matga har kun sut olib kelib berardi, so‘rab olsa ham buladi urush degan balo hammaning ko‘zini och qilib quygani bois kelini Xadicha qulupnayni qizg‘anardi, bolalarimni rizqini qiymang deb, bechora ona so‘ramay olishga majbur so‘rasa kelini bermaydi, qulupnay olib bormasa sut yo‘q, o‘g‘li och qoladi, nima qilsin bechora ona so‘ramay olishga majbur buladi. "Yarim kecha bo‘lib qolgan it akkilaydi . Ayvon chetidagi uzun mixga ilg‘liq lampochka xira nur taratadi." ^[2]Shoikrom qulupnaylarni, kimdir olayotganini payqaydi va

unga tok quyishga majbur bo'ldi chunki u tungi smenada ishlagani bois xotini bolalari yolg'iz, xotini chiqa olmaydi hovliga, tok qo'yib o'g'rini ushlamoqchi bo'ldi lekin bilmaydiki u o'g'rims onasiligini, u o'z onasini vafot etishiga sababchi bo'lgan farzand hisoblanadi. "Umri xolani peshin namoziga chiqarishdi, qabiristondan qaytib kelayotganida Shoikrom odamlarning o'zaro gapini eshitib qoldi, -Urush tamom bo'libdi, eshitingizmi?"^[3]

Xulosa qilib aytganda "Urushning so'nggi qurboni" asari urush haqida urushning fojiali oqibatlariga olib kelishi haqida, insoniyat tarixida eng dahshatli qirg'inbarot ikkinchi jahon urushi millionlab kishilar yostig'ini quritishdan tashqari, odamlar ongi, ruhiyatida ham yomon o'zgarishlar yasadi, ochlik, muhtojlik, odamlarni asabiy, bir- biriga g'anim qilib qo'ydi, boshqa bir kimsalarni esa egri yo'lga boshladi. "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasi qahramoni Umri xola urush ketayotgan joydan minglab kilometr uzoqlikda bo'lsa ham halok bo'ldi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. S. Ahmedov, R.Quchqorov, Shu.Rizayev, Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinf uchun darslik-majmua.
- 2."Bahodirovna Shahzoda umum ta'lim maktablarida O'tkir Hoshimov hikoyalar tahlili"
maqola "Tafakkur" Toshkent 2017.